



JINOYATLAR SODIR ETILISHINING SABAB VA SHART- SHAROITLARINI BARTARAF ETISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

B.E.Berdialiyev – *O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot
instituti boshlig'i, polkovnik, yuridik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Jahonda taraqqiyot va xavfsizlikka raxna solayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, transmilliy jinoyatlar va yot g'oyalar ta'sirining tobora kuchayib borayotganligi ularga barham berish va o'z vaqtida oldini olish bo'yicha zamonaviy va samarali tizimni yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashishning bosh yo'nalishiga aylantirish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha puxta o'ylangan va izchil harakatlarni davom ettirish zarurati oshib bormoqda. Yer yuzida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlar va ularning oldini olishni takomillashtirishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga



muvofiglashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarni turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 16-maqsadi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratishdan iborat bo'lib, huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish"¹ hamda bunda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlar va ularning oldini olishni takomillashtirish va uni tadqiq etishning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi (2010), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2021), "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida"gi (2021) Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/>



jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida²gi (2024) Farmonlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 30.11.2024 yil "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 801-sonli qarori qabul qilindi.

Unga muvofiq, huquqbuzarlik sodir etish va undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari bilan elektron axborot almashish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Qaror bilan "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ham nizom tasdiqlandi.

Nizomda:

ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar doirasi va ijtimoiy profilaktika ob'ektlarini aniqlash, ularga doir ma'lumotlarni "mahalla ettiligi", shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga elektron shaklda taqdim etish tartibi;

"mahalla ettiligi" hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi;

"mahalla ettiligi" hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini yakunlash tartibi belgilab berilgan.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-10-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6755597?ONDATE=16.01.2024%2000>





Qarorga muvofiq, mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarining to'liq, izchil va samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida “mahalla etiligi”ga hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimidan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

“E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi Mahallaning yagona platformasi bilan integrasiya qilinib, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida elektron axborot almashinuvi to'liq yo'lga qo'yiladi.

Ushbu Nizom «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori, shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik mexanizmlarini belgilaydi.

«E-ijtimoiy profilaktika» axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — axborot tizimi) — ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi sub'ektlar o'rtasida axborot almashish imkonini beradigan elektron tizim;

ijtimoiy profilaktika tadbirlari — huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatishda amalga oshiriladigan tadbirlar majmui;

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi sub'ektlar — mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori;

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar — mehnat organi xodimi, tibbiyot xodimi, maktab direktori va maktab psixologi, inspektor-psixolog, shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini



amalga oshiruvchi sub'ektlarning murojaatiga asosan jalb etiladigan tuman (shahar) darajasidagi tegishli davlat organlari va tashkilotlari xodimlari;

ijtimoiy profilaktika ob'ektlari — o'ziga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarning ijtimoiy muammolari;

ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar — huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar;

ijtimoiy moslashtirish dasturi — ijtimoiy profilaktika ob'ektlariga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi sub'ektlar tomonidan ijtimoiy profilaktika jarayonida amalga oshiriladigan tadbirlar.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat har doim rivojlanishda bo'lganidek, jinoyatchilik ham rivojlanib, murakkablashib va takomillashib boradi. Shuning uchun ham bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ochish borasida xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlari, qolaversa barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini takomillashtirish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-10-sonli Farmoni. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonun. (2010),
4. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun. (2014). <https://lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi



faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori (2021). <https://lex.uz/>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida"gi Qarori (2021). <https://lex.uz/>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (2021). <https://lex.uz/>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (2021), <https://lex.uz/>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"³gi (2024) Farmoni. <https://lex.uz/>

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 801-sonli qarori. 30.11.2024 yil. <https://lex.uz/>

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-10-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6755597?ONDATE=16.01.2024%2000>